

## Ustozlarni e'zozlab

8-mart Xalqaro xotin - qizlar kuni arafasida "Gidromelioratsiya" fakulteti "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida professor o'qituvchilari G'.U.Yusupov, S.E.Nurjanov va Q.Sh.Eshquvvatovlar kafedraning faxrli ustozlari gidrogeolog g.m.f.n. dotsent M.Umarova xonadonlariga tashrif buyurishdi. M.Umarova va G'.Usmonovich ish faoliyatida birga bajargan ishlarini, mehnat faxriylarini, ustozlarini va yelkadosh bo'lib ishlagan har bir xodimni esladilar.



M.Umarova o'zining 87 yillik umri davomida erishgan yutuqlarini aytib hayotidan mamnun ekanligini Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutida ishlaganidan faxrlanishini va aynan faxr tuyg'usini hozirgi zamon yoshlariga singdirish kerakligini bot-bot takrorladi. M.Umarova tashrifdan ko'ngli tog'day ko'tarilganligini ta'kidlab o'tdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**